



ISSUES OF DETERMINATION AND EXECUTION OF PUNISHMENT OF COMPULSORY PUBLIC AFFAIRS

Salayev Alisher ¹

¹ Tashkent State University of Law Master

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4738392>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2021

Accepted: 25th April 2021

Online: 30th April 2021

KEY WORDS

Able-bodied, criminal,
compulsory community
service, JK, convict,
executor, court.

ABSTRACT

This article discusses the dates of compulsory community service, the system of criminal penalties, the procedure for their execution, as well as the laws of the Criminal Code.

MAJBURIY JAMOAT ISHLARI JAZOSINI TAYINLASH VA IJRO ETISH MASALALARI

Salayev Alisher ¹

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021

Ma'qullandi: 25-aprel 2021

Chop etildi: 30-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

Mehnatga layoqatli, jinoiy
jazolar, majburiy jamoat
ishlari, JK, mahkum, ijro
etuvchi, sud.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada majburiy jamoat ishlari vaqti vadam olish kunlari, jinoiy jazolar tizimi, ularni ijro qilish tartibi shuningdek JK dagi qonunlar haqida so'z boradi.

Jinoiy jazolar tizimiga yangi — majburiy jamoat ishlari kiritildi. U mahkumni bepul ijtimoiy foydali ishlarga majburiy jalb etishdan iborat. Agar mahkum ishlayotgan yoki o'qiyotgan bo'lsa, majburiy jamoat ishlari ish yoki o'qishdan bo'sh vaqtlarda o'taladi.

Jazo 120 soatdan 480 soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi va 6 oy mobaynida, mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlarda esa 1 yilgacha bo'lgan muddatda kuniga 4 soatdan ko'p bo'lmagan vaqtda o'taladi.

Mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlar uchun ushbu muddat 60 dan 240 soatgacha bo'lgan muddatni tashkil etadi. 16 dan 18 gacha bo'lgan yoshdagi shaxslar uchun ijroning davomiyligi – 6 oy mobaynida, mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlarda esa – 1 yilgacha kuniga 2 soatdan o'taladi. Bunda ular tomonidan bajarilayotgan ishlar sog'lig'iga va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmasligi, o'qish jarayonini buzmasligi lozim.



Jazoning bu turi:

- pensiya yoshiga yetganlar;
- 16 yoshga to‘lmaganlar;
- homilador ayollar;
- uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollar;
- I va II guruh nogironlari;
- harbiy xizmatchilar;
- chet el fuqarolari va O‘zbekistonda doimiy yashamaydigan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Mahkum jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan taqdirda, sud majburiy jamoat ishlarining o‘talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining 4 soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning 1 kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

Bundan tashqari, mahkum jarimani to‘lashdan bosh tortganda yanada qat‘iyroq jazo qo‘llaniladi. Bunday holatda hisob-kitob quyidagi tartibda olib boriladi: EKIHning 1 barobariga teng jarima summasiga 2,5 soat, ammo 480 soatdan oshmasligi kerak (*voyaga yetmaganlar uchun – EKIHning 1 barobari uchun 2 soat*).

Shuningdek, har xil turdagi asosiy jazolarni qo‘shganda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni majburiy jamoat ishlarining 4 soatiga to‘g‘ri keladi.

Majburiy jamoat ishlari tarzidagi jazo Jinoyat kodeksining shaxsga qarshi, iqtisodiyot, ekologiya sohasidagi, shuningdek hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalarining faoliyat tartibiga qarshi, jamoat xavfsizlik hamda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni reglamentlovchi moddalariga kiritildi.

Ijro etish tartibi

Mazkur turdagi jazoni ijro etish mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Mahkum majburiy jamoat ishlarini o‘tashi mumkin bo‘lgan joylar

(ob‘yektlar) va majburiy jamoat ishlarining turlari jazolarni ijro etish inspeksiyalari tomonidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining taklifiga ko‘ra belgilanadi.

Majburiy jamoat ishlariga hukm qilingan shaxs jazoni o‘tashga sudning hukm qonuniy kuchga kirganligi haqidagi xabarnomasi jazolarni ijro etish inspeksiyasiga kelib tushgan kundan e‘tiboran 10 kundan kechiktirmay jalb qilinadi.

Ko‘rsatilishicha, mahkumga asosiy ish joyidan navbatdagi har yilgi mehnat ta‘tilining berilishi majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini to‘xtatib turmaydi.

Jazoni o‘tash jarayonida mahkum quyidagilarga majbur:

- sudning hukmi, ajrimi yoki qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran 10 kun ichida yashash joyidagi jazolarni ijro etish inspeksiyasida hisobga turishi;
- majburiy jamoat ishlarini bajarish va o‘tash shartlariga rioya etishi;
- o‘zi uchun belgilangan joyda (ob‘yektda) ishlashi hamda majburiy jamoat ishlarining belgilangan muddatlari va hajmlarini ishlab berishi;
- majburiy jamoat ishlarini o‘tash joyidagi (ob‘yektidagi) tashkilotning (organning) ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi, mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lishi;
- yashash joyi o‘zgarganligi haqida jazolarni ijro etish inspeksiyasini xabardor qilishi, shuningdek uning chaqiruviga binoan yetib kelishi shart.

Majburiy jamoat ishlari vaqti dam olish kunlari va mahkum o‘qishda yoki asosiy ishda band bo‘lmagan kunlari 4 soatdan oshmasligi kerak (*voyaga yetmaganlar uchun – 3 soat*). Ish kunlari, o‘quv darslari (mashg‘ulotlar) o‘tkaziladigan kunlari esa, ish/o‘qishdan oldin yoki keyin 2 soatdan, mahkumning iltimosiga ko‘ra esa, 4 soatdan oshmasligi (*voyaga*



yetmaganlar uchun – 2 soat, haftasiga 3 kundan oshmasligi) lozim.

Mahkum o'taydigan majburiy jamoat ishlarining vaqti, qoida tariqasida, haftasiga 12 soatdan kam bo'lmasligi lozim. Biroq, mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, jazolarni ijro etish inspeksiyasi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishilgan holda mahkumga hafta yoki oy mobaynida majburiy jamoat ishlari soatlarining kamroq miqdorini ishlab berish uchun ruxsat etishga haqli.

Quyidagilar majburiy jamoat ishlarini o'tashdan bo'yin tovlovchilar deb e'tirof etiladi:

- 10 kun ichida hisobga turmagan, shuningdek jazoni o'tashdan bo'yin tovlash maqsadida yashiringan mahkum;

- yozma ogohlantirish olganidan so'ng, o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar mavjud bo'lmasa-da, majburiy jamoat ishlarida 1 oy davomida 2 martadan ko'p ishtirok etmagan mahkum;
- yozma ogohlantirish olganidan so'ng majburiy jamoat ishlarini o'tash joyidagi (ob'yektidagi) tashkilotning (organning) ichki mehnat tartibi qoidalarini 1 oy davomida 3 martadan ko'p buzgan mahkum.

Jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan mahkumning turgan joyi noma'lum bo'lgan taqdirda, unga nisbatan qidiruv e'lon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Sterk, "Enforceability of Agreements to Arbitrate: An Examination of the Public Policy Defense", *Cardozo Law Review* at p. 482.
2. Alan Redfern and Martin Hunter, *Redfern and Hunter on International Arbitration*, (student edition, Oxford University Press, 2009) para 2.176.
3. Klaus Peter Berger, "Re-examining the Arbitration Agreement: Applicable Law – Consensus or Confusion?" EWCH 13.04.2011.
4. The New York Convention of 1958. First published 1958, Reprinted 2012.
5. <https://lex.uz/docs/-3731125>
6. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/majburiy_jamoat_ishlari_qanday_ugaladi